

## LUTFIY DEVONINING QO'LYOZMA NUSXALARI

**Madina Bobomurodova,***Qarshi davlat universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik  
(o'zbek tili) mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Mavlono Lutfiyning turkiy "Devon"ining bir qancha qo'lyozma nusxalari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, shoirning adabiy merosi ko'chirilgan qo'lyozma nusxalarining ayrimlari tasniflangan, ya'ni adabiy manbaning tuzilishi, uning qog'ozlarini sifatlari, o'lchamlari, holatlari to'g'risida ham mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Lutfiy, devon, qo'lyozma nusxa, qo'lyozma fond, kotib, matn, adabiy manba, asar tarkibi, manbashunoslik, kolleksiya.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются несколько рукописных списков тюркского "Дивана" Мавлана Лутфи. Также классифицированы некоторые рукописи, содержащие литературное наследие поэта: проанализированы структура литературного источника, качество бумаги, формат и состояние сохранности рукописей.

**Ключевые слова:** Лутфи, диван, рукописный список, рукописный фонд, переписчик (катиб), текст, литературный источник, состав произведения, источниковедение, коллекция.

**Annotation.** This article discusses several manuscript copies of Mavlono Lutfi's Turkic "Divan". Additionally, it classifies some manuscript copies of the poet's literary heritage, providing insights into the structure of the literary source, the quality of the paper, its dimensions, and the general condition of the manuscripts.

**Keywords:** Lutfi, divan, manuscript copy, manuscript fund, scribe (katib), text, literary source, composition of the work, source studies, collection.

**Kirish.** O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida XIV-XV asr alohida o'rin tutadi. Aynan shu davrda yashab ijod etgan Lutfiyning ijodi mumtoz adabiyotda alohida ahamiyat kasb etadi. Uning g'azallari nafaqat badiiy go'zalligi, balki falsafiy teranlik va til boyligi bilan ham ajralib turadi. Shu bois Lutfiy ijodi ko'p asrlar davomida o'quvchilar va tadqiqotchilar diqqatini tortib kelmoqda. Shunday bo'lsa-da, shoirning ilmiy merosi hali to'liq o'rganilgan deb bo'lmaydi. Buning asosiy sababi – Lutfiy devonining yagona, ilmiy jihatdan tasdiqlangan matni mavjud emasligi. XIX–XX asrlarda, Lutfiy merosi o'zbek adabiyotshunosligi doirasida kengroq ilmiy tahlil obyektiga aylangan. Bu bosqichda shoir ijodi o'zbek adabiyoti tarixida yuksak baholanib, uning she'riyati, janrlar tizimi va badiiy xususiyatlari yuzasidan muhim ilmiy xulosalar ilgari surilgan. Aynan shu davrda lutfiyshunoslik mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllana boshlagan. Mustaqillik davrida Lutfiy adabiy merosini o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda shoir asarlarini qayta nashr etish, mavjud ilmiy qarashlarni qayta ko'rib chiqish va yangi manbalarni ilmiy muomalaga kiritish jarayoni faollashdi. Natijada, Lutfiy merosining o'rganilishi faqat umumiy adabiy baholar bilan cheklanmay, balki tizimli va manbaviy asosda olib borilayotgan ilmiy yo'nalishga aylandi.

**Adabiyotlar sharhi.** Mavlono Lutfiyning devoni qo'lyozmalar fondida, chet davlatlar kutubxonalarida shaxsiy kolleksiyalarda hamda bir qator kutubxonalarda

saqlanmoqda. Shoirning adabiy merosi mumtoz adabiyotimizda juda boy lirikani tashkil etuvchi “Devon”i bir qator nusxalarda bizgacha saqlanib kelinmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada shoirning devoni qo‘lyozma nusxalari haqida mulohazalar yuritiladi; Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondidagi bir necha qo‘lyozmalar va xorijiy kutubxonalarda saqlanib kelinayotgan nusxalari to‘g‘risida ma‘lumot berib o‘tiladi.

**Tahlillar va natijalar.** Lutfiyshunos olim Erkin Ahmadxo‘jayevning ko‘plab ilmiy maqolalari Lutfiy lirik merosi haqida bo‘lib, olimning xabar berishicha, shoirning turkiy devonini o‘zi tartib etgan. Keyinchalik bu devon u yashagan davrdan boshlab XIX asrgacha turli kotiblar tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, ular jami 33 nusxani tashkil etadi. Olimning ta‘kidlashicha, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondida 1431, 5023-I, 1117-I, 817-I, 5024-I, 818-II, 121-IV, 7715, 2021, 1827 inventar raqamli 10 nusxa, sobiq Hamid Sulaymonov nomidagi qo‘lyozmalar institutida 201-IV, 150-I, 231, 2759, 2677, 4270 inventar raqamli 6 nusxa, Tojikiston Fanlar akademiyasi Qo‘lyozmalar fondida 1456-I, 650, 1709-I, 1062 inventar raqamli 4 nusxa, Rossiya Sharqshunoslik institutining Leningrad bo‘limida 1922-IV, 2466 (A-109-I) inventar raqamli 2 nusxa, Ahmadjon Madaminovning shaxsiy kutubxonasida 1 nusxa, qolaversa, xorijdagi Parij milliy kutubxonasida turkiy qo‘lyozmalar bo‘limida 981 inventar raqamli nusxa, Londondagi Britaniya muzeyidagi 7914 inventar raqamli nusxa, Istanbul universiteti fondida T.273/2, 2753 inventar raqamli 2 nusxa, Bursa shahridagi muzeyda ham inventar raqami noaniq bo‘lgan 1 nusxa, Kanadalik islomshunos, usmonli va turkiy qo‘lyozmalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan olim Eleazer Birnbaumning shaxsiy kolleksiyasida ham 1 nusxasi bor. Bularning ichidan eng mukammali Parij nusxasi hamda London nusxasi sanaladi, 7914, 981, 1431 inventar raqamli qo‘lyozmalar, Bursa nusxasi, Birnbaum nusxasi bo‘lsa XV asrning 2-yarmida va XVI asrda Hirot shahrida ko‘chirilgan. Qolgan qo‘lyozma nusxalari XIX-XX yuzyillarda ko‘chirilgan [8, B:44]. Quyida ayrim qo‘lyozma nusxalari tavsifi xususida so‘z boaradi.

**Parij nusxasi.** Parij Milliy kutubxonasida 981 inventar raqami ostida saqlanayotgan “Devoni Lutfiy” 1<sup>b</sup>-95<sup>a</sup> sahifalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu devonda Gadoiyning devoni ham kiritilgan bo‘lib, 96<sup>a</sup>- 161<sup>b</sup> varaqlarni o‘z ichiga oladi. Muqovasi bezaksiz. Devonning 1<sup>a</sup>- betida “*Devoni Lutfiy va Devoni Gado zaboni chig‘atoy*” ( *ديوان لطفی و دیوان زبان چغتای* ) degan yozuv mavjud. 1<sup>b</sup>-sahifasining yuqori qismida rangli ziynat bilan bezalgan lavha ichida “Devoni Lutfiy” deb yozilgan. Qo‘lyozmaning qog‘ozi yupqa, novotrang, shaldiroq bo‘lib, matnlar ravon nasta‘liq xatida yozilgan. She‘rlar jadvalga olingan, har bir she‘r boshlanishidan oldin tillarangli harflar bilan “valahu – yana” so‘zi yozilgan. Devon sahifalari mukammal yaxshi saqlangan bo‘lib, unga hech qanday zarar yetmagan. She‘rlar ikki ustunga yozilgan, ba‘zi o‘rinlarda maqta’si o‘rtada joylashtirilgan. Devondagi poygilar har bir sahifada qo‘llangan. Qo‘lyozmaning o‘lchami 10x16,8 sm, matn o‘lchovi 7,8x11,5 sm [2, B:41]. Qo‘lyozma muqovasi jigarrangda, o‘rtasida bezakli naqsh

tushirilgan, muqovadan so‘nggi sahifada fransuzcha “*Volume de 161 Feuillet 26 Avril 1900*”, ya‘ni 161 varaqadan iborat kitob gapi yozilgan. Birinchi sahifasida “Turk qo‘lyozmalari, 981” yozuvi tushirilgan, qizil rangli muhr ham bosilgan. Devon kim tomonidan qachon ko‘chirilganligi haqida ma‘lumot berilmagan. Erkin Ahmadxo‘jayevning tadqiq etishicha, ilmiy farazlarga asosan, yozilgan xati bo‘yicha XVI asr oxiri XVII asr boshida Buxoroda ko‘chirilgan. Devon oxirida kollofon ko‘rinishida “Tammat devoni Mavloni Lutfiy vaalhamdulillah vassalom” satrlari berilgan. [2, B:41].

Devon an‘anaviy hamd va na‘t g‘azallari bilan boshlanadi. Hamd g‘azalidan so‘ng qasida va undan keyin na‘t g‘azali kelgan. Devon sharqona an‘ana asosida radiflari arab alifbosida tartiblangan. <sup>1</sup> (alif) dan boshlanib, **ى** (yo) bilan tugllanadi. Devon 313 ta g‘azal, 54 ta ruboiy, tuyuq, qit‘a, 31 fard hamda bitta qasidani o‘z ichiga olgan. Devonda Lutfiyning jami lirik janrlari 399 tani tashkil etadi. Mazkur devonda har bir janr alohida nomlanmagan “yana” sarlavha bilan berib o‘tilgan, shuningdek, kichik janrlar janr bo‘yicha tasniflab berilmagan. “Devoni Lutfiy” tarkibidagi, deyarli, barcha g‘azallarda tahallus qo‘llagan, faqat bir g‘azalida tahallus qo‘llanilmagan. Ushbu devonning hajmi 3948 misrani tashkil etadi, bulardan 6ta g‘azali 9 baytli, 1ta g‘azali 8 baytli, 186ta g‘azali 7 baytli, 15ta g‘azali 6 baytli, 104ta g‘azali 5 baytli va so‘ngisi bitta qasidasi 20 baytli sanaladi. “Devoni Lutfiy”ning 2<sup>b</sup>-87<sup>b</sup>-sahifalarida g‘azallari, 87<sup>b</sup>-93<sup>a</sup>- varag‘larida kichik janrlar, 93<sup>a</sup>-95<sup>b</sup> betlarida fardlari o‘rin olgan.

**201-inventar raqamli qo‘lyozma.** Mazkur qo‘lyozma nusxasida to‘rtta asar bo‘lib, 201-I raqamli qo‘lyozma shoir *Binishning devoni* (*ديوان بنيش*) joy olgan bo‘lib, bu devon 1<sup>b</sup>-110<sup>b</sup> sahifalarni tashkil etadi. 201-II raqamli qo‘lyozma 111<sup>b</sup>-138<sup>b</sup> varaqlardan o‘rin olgan *Masnaviyi Mirzo* (*مثنوى ميرزا*) bo‘lib, u hijriy 1228 – milodiy 1813-yilda ko‘chirilgan. 201-III raqamli qo‘lyozma nusxa 139<sup>b</sup>-142<sup>b</sup> betni o‘z ichiga olgan, 140<sup>a</sup>-141<sup>a</sup> sahifalarda shoir Jaloliy Lutfiyning g‘azaliga fors tilida muhammas bog‘lagan. 141<sup>a-b</sup> varaqlarda bo‘lsa Alisher NAvoiyning g‘azaliga o‘zbek tilidagi muhammasi mavjud. 201-IV raqamli qo‘lyozmada *Lutfiy devoni* (*ديوان لطفى*) joy olgan. Bu devon qo‘lyozmaning 143<sup>b</sup>-222<sup>a</sup> betlariga joylashtirilgan.

Qo‘lyozma xattotining ismi berilmagan. Qo‘lyozma oxirida kitobat sanasi berilgan bo‘lib, hijriy 1228 – milodiy 1813-yilda ko‘chirilgan. Qog‘ozi – yupqa, shaldiroq, novvotrang Qo‘qon qog‘ozi. Devon varaqlari raqamlashtirilmagan, keyinroq qalamda sahifalari yozib qo‘yilgan. Barcha varaqlarda poygiri bor. She‘rlar ikki ustunga yozilgan bo‘lib, har sahifada o‘n ikki yo‘l bitilgan. Devonning xati nasta‘liqda yozilgan, unga shikasta elementlar aralashgan. An‘anaviy hamd va na‘t bilan boshlangan. Matn o‘lchovi 12x6 sm. To‘rtala asarlar dastlabki qalin karton, bezakli, o‘yma naqshli muqovada. [1, B:42]

Yuqoridagi shoirning “Devon”dagi lirikasi 1879 baytni qamrab olgan bo‘lib, ulardan:

- 9 baytli g‘azal oltita;

- 8 baytli g‘azal bitta;
- 7 baytli bir yuzi oltmish yetita;
- 6 baytli o‘n to‘rtta;
- 5 baytli sakson yetita;
- 4 baytli bittadir.

Bundan tashqari, devonda 9 ta ruboiy, 7 ta tuyuq, 3 ta qit‘a joy olgan. Devonda g‘azallar an‘anaviy arab alifbosi asosida tartiblangan.

**Andijon nusxasi.** Lutfiy devonining Andijon nusxasi sharqshunoslik institute qo‘lyozmalar fondiga XX asr oxirlarida kelirilgan. Mazkur nusxaning qachon kim tomonidan ko‘chirilgani noma‘lum, biroq XIX asrda ko‘chirilganligi haqida ma‘lumotlar bor. Qog‘ozi – oqish, shaldiraq, yupqa, Qo‘qon qog‘ozi. G‘azallar bir-biridan qizil chiziq bilan ajratilgan bo‘lib, ammo bunga har doim amal qilinmagan. Chiziqalar aynan bir g‘azalni ikkinchi g‘azaldan ajratishga xizmat qilmagan, chunki ba‘zi o‘rinlarda g‘azalning maqta’sida, ba‘zi o‘rinlarda boshqa baytlar ostidn chizilgan. Matnlar nasta’liq xatida yozilgan, har bir varaqda 13 misradan bir ustunda birin-ketin joylashtirilgan. Poygir izchil berilmagan. Matn o‘lchovi 9,5x9 sm. Qo‘lyozma dastlabki qalin karton, tamg‘ali, yashil muqovada. Tamg‘ada عمل ملا عبدالله صحاف (Amali mulla Abdulloh sahhof) yozuvi aks etgan.

Devon qo‘lyozmasining boshidagi hoshiyasi shikastlangan, ayrim o‘rinlarda dog‘lar ham uchraydi. 82<sup>b</sup>-betdan keyin bir varaq tushib qolgan, negaki poygir bor-u keying sahifalari mavjud emas. Qo‘lyozmada shoir devoni 1<sup>b</sup>-102<sup>a</sup> betda o‘rin olgan bo‘lib, 1<sup>a</sup>-1<sup>b</sup> sahifada Alisher Navoiydan baytlar, 102<sup>b</sup> -betda Huvaydoning “Kelib” radifli g‘azali, 103<sup>a</sup> varaqda masnaviy, 103<sup>b</sup>-104<sup>a</sup> sahifada Muqimiyning “Tasaddug‘ing ketay” radifli g‘azali va boshqa she’rlar bitilgan. Devon an‘anaviy hamd va na‘t bilan boshlangan. Qasidasining 5 bayti bor, olganlari aks etgan sahifa esa tushib qolgan. Devonda 219 ta g‘azali berilgan bo‘lib, ulardan:

- ❖ 2ta 3 baytli;
- ❖ 6ta 4 baytli;
- ❖ 67ta 5 baytli;
- ❖ 35ta 6 baytli;
- ❖ 93 ta 7 baytli;
- ❖ 4ta 8 baytli;
- ❖ 2ta 9 baytli (boshqa qo‘lyozma nusxa bilan muqoyasa qilinganida ushbu g‘azallarning ayrimlarida bitta misrasi kam yoki bayti kam holatlar ham kuzatilgan).

G‘azallar odatdagidek alifbo tartibida berilgan [1, B.45].

**Xulosa.** Muxtasar qilib aytganda, Lutfiy lirikasi o‘zining g‘oyaviy-estetikasi bian o‘z davri shoirlaridan ajralib turadi. Alisher Navoiyning “Majolisu-n-nafois” asarida keltirilishicha, shoir “Devon”ini o‘z qo‘li bilan ko‘chirgan. Uning devonidan ko‘chirmalar

o'ziyashagan davrdan boshlangan. Shoirning devon qo'lyozma nusxalari har biri did bilan ko'chirilgan bo'lib, shu kungacha o'z ishining ustalari tomonidan yaxshi saqlanib kelinmoqda. Biz ko'rib o'tgan qo'lyozmalar matnshunoslik va adabiy manbashunoslikda ahamiyatga moyil bo'lishidan umid qilamiz, negaki Lutfiy ijodini o'rganuvchi har bir yosh matnshunos uchun muhim manba vazifasini o'taydi. Yuqorida ko'rib o'tilgan nusxalar xamir uchidan patir hisoblanib, kelgusi ilmiy tadqiqotlarda bu haqida bahs yuritamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аҳмадхўжаев Э. Икки қўлёзманинг муқоясаси. Адабий мерос. 1980. № 4 –Б-40-49.
2. Аҳмадхўжаев Э. Лутфийнинг янги топилган фардлари. Адабий мерос, 1976, № 6. – Б.34-42
3. اداگ\_ناويد\_يفطل\_ناويد. Source gallica.bnf.fr / Bibliothèque nationale de France.
4. Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institute qo'lyozmalar fondi. Inv. №5024-I
5. Афтондил Эркинов. Матншunoslik va манбашunoslik асослари. Тошкент, 2019. 77 б.
6. Аҳмадхўжаев Э. Мавлоно Лутфий. – Т.: Фан, 1991. – 246 б.
7. Аҳмадхўжаев Э. Туркий назмнинг сеҳргари. – Т.: Фан, 1992. – 238б.
8. Аҳмадхўжаев Э. Лутфий девонининг СССР ва хорижий фондлардаги қўлёзмаларини тавсифлашга доир. Адабий мерос. 1983. № 2 –Б-43-47.

